

---

## MAHALLADAN XABARLAR



O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi hamda Yoshlar siyosati va sport vazirligining joriy yil 30 mart kungi qo'shma qarori ijrosini ta'minlash maqsadida Solijonobod MFY profilaktika inspektori tomonidan o'tkazilayotgan "Obod va xavfsiz mahalla" maxsus-profilaktik tadbirlari doirasida chiqarilgan xulosasiga asosan Qadryat ko'chasida yashovchi Zokirjon Safarovga imtiyozli kredit asosida yuk tashuvchi motoroller olib berildi. Hozirda fuqaroning bandligi ta'minlanib, oilasiga daromad keltira boshladi.

\* \* \*

Solijonobod MFY hududida faoliyat ko'rsatayotgan Sirdaryo-So'x irrigatsiya tizimlari xavza boshqarmasi xuzuridagi Nasos stantsiyalari va energetika boshqarmasi Qo'shtepa bo'limi "Yangi yo'l-1" nasos stantsiyasiga 1 kVtli quyosh panellari hamda 100 litrli sig'imga ega quyosh suv isitish moslamasi o'rnatildi.



**[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)**

[Facebook](#),

2023-08-21 08:58:54